

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

Xaydarov M.T, AbdullaevaM.

MAKROIQTISODIY TAHLIL

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus,
kasb-xunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar
faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan
“Makroiqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi talabalari
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2007

Xaydarov M.T, Abdullaeva M.. «Makroiqtisodiy tahlil» - (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2007 – 149 bet.

o'quv qo'llanmada makroiqtisodiy tahlilda foydalaniladigan asosiy iqtisodiy tushunchalar va kategoriyalarni mohiyati, ular orasidan o'zaro bog'liqliklar yaratilgan ijtimoiy – iqtisodiy xolatlarni tahlil qilish usullari va hisoblash ko'rib chiqilgan.

O'quv qo'llanma iqtisodiy fanni yutuqlarida va jaxon amaliyotida asoslangan va undan tashqari xalqaro moliya institutlarini talabiga asoslangan. O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalishlarning bakalavrlari, magistrleri, professor-o'qituvchilari va iqtisodiy integraciya sharoitida makroiqtisodiy tahlil bilan qiziqadiganlar uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir: i.f.n., doc. Xayitov A.B.

Taqrizchilar: i.f.n., professor Ishmuhamedov A.E';
i.f.n., professor Xakimov N.X.

Хайдаров М.Т., Абдуллаева М.К. «Макроэкономические анализ» - (Учебное пособие) – Т. : ТГЭУ, 2007г. с.

В учебном пособие рассматриваются важнейшие вопросы макроэкономической анализа, экономические категории отношение между ними, а так же социально-экономический характер анализа. Дается характеристика перехода на систему национальных счетов (СНС) как основу перестройки макроэкономической статистики в условиях рыночной экономики. Экономические отношение между институциональными секторами, государственные финансы, их взаимоотношение, атак же тенденции развитие рассматривается как неотъемлемая часть макроэкономической анализа.

Учебное пособие предусмотрена для бакалавров, магистров, профессорам-преподавателям, а также интересующих макроэкономическим анализе.

Ответственный редактор доц.А.Б.Хайитов

Рецензенты: д.э.н.,проф. Ишмухамедов А.Э.

д.э.н.,проф.Хакимов Н.Х.

Xaydarov M.T. Abdullaeva M. « A subject of the theory of economic and social forecasting » - – T.: TDIU, 2007 yil– 180 bet.

This manual is about main categories and economic terms of macroeconomic analysis, their relations, social- economic relations and ways of calculation.

The manual is based on the achievements of economic science, world practice and international financial institutions. In connection with transition market relation it is important to study institutional sector of NAS and government management sector.

This manual is designed for the bachelor and master's students of Higher Educational Establishments as well as for professor-lecturers and for those interested in analysis of macro-economy.

Editor in chief: dos. Khaitov A.B.

Reviewers: p.h.d., prof. Ishmuhamedov A.E

p.h.d., Khakimov N.K.

KIRISH

Halqaro iqtisodiyotiga integraciyalashish XVF, Jaxon Banki, Osiyo Rivojlanish Banki kabi xalqaro moliya tashkilotlar faoliyatiga qatnashish bir qancha qoidalariga rioya qilishni talab e'tadi. Bulardan biri bo'lib mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilganda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini bir xil usul va uslublarda xisoblash kiradi. Mamlakatni iqtisodiy xolatini, o'tkazilayotgan joriy chora tadbirlarini zarurligini, samarasini baxalashdaiqtisodiy tahliljuda katta axamiyatga e'ga. Tahlilni muxim vazifalridan biri bo'lib mamlakatda sodir bo'layotgan jarayonlarni modellashtirishni sifatini oshirish, o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosatni natijalarini aniqlash. Makroiqtisodiy tahlil asosiy ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri bo'lib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zaro bog'likliklarini aniqlab berishga yordam beradi.

Ushbu muammoli ma'ruzalar matnlarini vazifasi bo'lib, milliy iqtisodiyotni ko'rsatkichlarini baxolash va monitoring o'tkazishda foydalanadigan usullarni to'plamini o'rgatish. o'quv qo'llanmada mamlakatda ishlab chiqarishdagi tovar va xizmatlarni jami xajmini xisoblash, inflyaciya suratlarni, ishsizlik darajasini, to'lov balansini saldosi va valyuta almashtiruv kursini tahlil qilish usul va uslublarini ko'rib chiqilgan.

Makroiqtisodiy tahlil ko'rsatilgan iqtisodiy agregatlarni o'zgarishlarini tushuntirib, iqtisodiyotda kutilmagan o'zgarishlarni oldini olish va chora tadbirlarni ko'rish uchun mamlakat mamuriyatiga belgilani ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan. Mamlakatda sodir bo'ladigan xollarni aniq tahlili va undan keyingi zarur bo'ladigan siyosatni ishlab chiqish, aniq iqtisodiy va statistik ma'lumotlari sistematik ravishda to'planishni talab e'tadi.

Muammoli ma'ruzalar matnlarini maqsadi hisobot asoslarini o'rgatish va mamlakat iqtisodiyotida daromad va boyliklarni taqsimotiga, ishlab chiqaruvchilarni va iste'molchilarni faoliyatiga ta'sir e'tuvchi, byudjet soliq, pul-kredit siyosatlarni, to'lov balansini va tashqi qarzni tahlil qilinayotganda asosiy koncepciyalar, soliq soxasini, davlat xarajatlarini va kapital qarz siyosati bilan tanishtradi.

I BOB. “MAKROIQTISODIY TAHLIL”GA KIRISH

1.1. Dialektika va iqtisodiy tahlil

Iqtisodiy tahlil asoslanadigan dialektikaning asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin: hamma narsa xarakterda; aniq aloqalarda, o'zaro bog'liqlikda va bir-birini taqozo qilishda, koordinacion va sub koordinacion aniqlikda; zarurat va tasodifning namoyon bo'lishida; qarama-qarshiliklarning birligi va o'zaro kurashida; miqdorni sifatga va sifatni yangi miqdorga o'tkazishda, inkorlarni inkordi anglashda.

Harakat– bu, tabiat, jamiyat, iqtisodiyot, fan madaniyat va insonni rivojlanishining so'zsiz shartidir. Tahlilning xususiyati, zarurati va qiyinligi statistikada e'las, balki dinamika o'rganilayotganida. Tahlilchi bu erda fotografga e'las, balki bir kadrda ikkinchisiga, bir hayotiy vaziyatdan boshqasiga doimiy o'tishni aks e'ttirib, hodisalarning ob'ektiv zanjirini yaratuvchi kinooperatorga o'xshaydi.

Harakatning o'zi– bu, juda murakkab hodisa, o'zida goho kengayib, goho qisqarib spiral bo'ylab teng aylana bo'yichcha o'tmishning qaytarilishini dialektik birlashtiruvchi va uzluksiz dinamikazning diskretlik hodisalari bilan, kritiklikning konstruktivlik bilan yaqqol birikmasidir. Bularning barchasi iqtisodiy tahlilning uslubiyati va metodikasida tegishli aks e'tishi kerak.

Demak, iqtisodiy tahlilning predmeti bir-biri bilan u yoki bu aloqada, doimiy harakat va rivojlanishda bo'lgan predmetlar va hodisalarning to'plamidan iborat bo'lgan tadqiqotchilikdir. Bu aloqalar xilma-xildir va qismni butunicha hamda aksincha munosabatlarda, tengliklar va tengsizliklarda, aniq yoki noaniq o'zaro bo'ysunuvchilikda, bir-birini taqozo qilishda va o'zaro bog'liqlikda o'z aksini topadi. Birining holatini o'zgarib ikkinchisiga o'tishi aks e'tuvchi o'zaro munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisalarni mantiqiy-uslubiy va gneseologik bilishdir. Iqtisodiy hodisalarni, ularning o'zaro munosabatini, aniq va umumiy ko'rinishini o'rganmasdan ularning tuzilmasini, xosalarini, voqeylikning qonunlarini bilish mumkin e'las.

Barcha mavjudotni qamrab oluvchi hodisalar, jarayonlar, predmetlarning hamma narsani qamrab oluvchi aloqasi munosabatlarning “to’ri” orqali bir butunni yaratadi va bu tadqiqot ob’ekti bo’ladi.

Bunda sabab-oqibat aloqani topish, ayniqsa, muhimdir, chunki sabab oqibatni keltirib chiqaradi, oqibat e’sa boshqa keyingi hodisa yoki holatning sababiga aylanadi va bu cheksiz davom e’tadi. Bu erda biz yana koordinatsiya va subkoordinatsiya namoyon bo’lgan doimiy harakat, rivojlanish va o’z-o’zini rivojlantirish jarayoni bilan to’qnashamiz. Ma’lumki, sabab-oqibat munosabatlar funktsional va stoxastikga bo’linadi, lekin ular hech qachon sababsizlik, tasodifga aylanmaydi.

Falsafiy ma’noda ta’osdifiyning o’zi zaruratning namoyon bo’lish shakllaridan biridir, u qandaydir sabablikning (ayrim vaqtd juda kam uchraydigan) hosilasidir.

Bu erda biz determinant va funktsional bog’liqlik tushunchalari bilan to’qnashamiz. Agar birinchisi o’rganilayotgan hodisalar o’rtasidagi aniq qat’iy aloqadorlikni bildirsa, ikkinchisi e’htimolli aloqa bilan xarakterlanadi. Shundan iqtisodiy tahlilning uslublari chiziqli aloqa xos bo’lgan determinant yoki e’htimolli bog’liqliklarni aniqlovchi stoxastik uslublar sifatida namoyon bo’ladi.

“Falsafa”ning asosiy muammolaridan biri qarama-qarshiliklarni birligi va o’zaro kurashi, tarixiy, shu jumladan, iqtisodiy rivojlanishining ziddiyatliligi haqidagi muammodir. Hech bir formatsiya bir tekis rivojlanmagan. Ularning har biriga rivojlanishning e’gri chiziqli, zigzagsimon, oldinga ketish, orqaga qaytishli xarakteri xos bo’lgan. Hozirda Rossiya va boshqa sobiq socialistik lager mamlakatlarning iqtisodiyoti bunga yorqin misoldir. Qarama-qarshiliklarning birligi va o’zaro kurashi, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlarning mavjudligi olg’a harakat qilishning e’ng qudratli vositalaridan biri hisoblangan. Global xarakterga e’ga bu qonun o’zini makrodarajada yaqqol namoyon qilib, turli iqtisodiy tarkibiy qismlarning o’zaro munosabatiga ta’sir e’tadi, Movaraunnahr ikrodarajadagi tuzilmalarda ham o’z aksini topadi. Ushbu qonunning korxonalar va ularning asosiciyalari xo’jalik-moliyaviy faoliyatiga ta’sirini iqtisodiy tahlil topishi va kelib chiqishi mumkin bo’lgan salbiy oqibatlarni qo’l ostidagi vositalar va usullar bilan oldini olishi, shu